



SOVET DAVLATI NAZORATI OSTIDA ISLOMNING
INSTITUTSIONALLASHUVI
THE INSTITUTIONALIZATION OF ISLAM UNDER SOVIET
STATE CONTROL
ИНСТИТУЦИОНАЛИЗАЦИЯ ИСЛАМА ПОД КОНТРОЛЕМ
СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА

Arslonbekov Nursulton Azizbek o‘g‘li

Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sovet Ittifoqining Islom diniga nisbatan yuritgan siyosati ko‘rib chiqiladi. Xususan, Musulmonlarning diniy boshqaruvi organi bo‘lmish, Muftiyliklar faoliyatini va davlat bilan munosabatini xolis yoritishga harakat qilinadi. Sovetlarning ikkiyuzlama siyosati hamda mana shunday murakkab vaziyatda diniy tashkilotlarning qanday qilib omon qolganligi tahlil qilingan. Maqolada ilmiy yondashuv asosida tarixiy haqiqatlarni rus, g‘arb va milliy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar : SSSR da islam, muftiylik, TsDUM, DUMES, SADUM.

Abstract: This article examines the Soviet Union's policy towards Islam. In particular, an attempt has been made to objectively cover the activities of the Muftis, the religious governing body of Muslims, and their relations with the state. The Soviets' hypocritical policy and how religious organizations survived in such a difficult situation are analyzed. The article analyzes historical facts based on scientific correspondence, based on Russian, Western, and national sources.

Keywords: Islam in the USSR, MUFTIATE, TsDUM, DUMES, SADUM

Аннотация: В статье рассматривается политика Советского Союза в отношении ислама. В частности, предпринята попытка объективно осветить деятельность муфтиев – религиозного органа управления мусульман – и их взаимоотношения с государством. Анализируется лицемерная политика Советов и то, как религиозные организации выживали



в столь сложной ситуации. В статье анализируются исторические факты, основанные на научной переписке, а также на российских, западных и отечественных источниках.

Ключевые слова: ислам в СССР, муфтият, ЦДУМ, ДУМЕС, САДУМ.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki 14 asrlik e'tiqodi Islom tamoyillari va qadriyatlar ustiga qurilgan xalqimizning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va shaxsiy hayotiga din shu qadar singib ketganki, Markaziy Osiyo musulmonlarining Sovet Ittifoqiga qadar hayoti Shariatga uzviy bog'liq holda shakllangan bo'lib, Sovetlar o'zlarining butun mavjud tuzilmalari bilan ham buni tugata olmadi¹.

Sovet davlati barpo etilgunga qadar diniy ishlar jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasida ulkan ahamiyat kasb etardi. Barcha masalalarda imomlar (odatda namozlarda va jamoatlarda etakchi mavqega ega) va ulamolar, masalan, nikohga raislik qilishda fikr bildirish, hamda huquqiy maqomga ega bo'lgan bo'lsada, ammo imomlar huquqiy masalalarda vakolatga ega emas edi². Shuning uchun ular odatda, shaxsiy masala, odatiy kunlik diniy amaliyot bo'yicha xalqni boshqarib turganlar. Shuning uchun bu jarayonda sovet dunyoviy davlati diniy ishlar ustidan nazoratni amalga oshirish uchun O'QMDB tashkilotini tashkil etishga majbur bo'ldi. SSSRda islam dini chegaralari bilan belgilangan hamda o'zi bilan kelisha oladigan islam makonini yaratdi³.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI

¹ Sirelkhatim Mohamed, "Authority in Islam: The Institutionalization of Islam and the Elusive Transfer of Authority from Society to State," *Journal of Georgetown University-Qatar Middle Eastern Studies Student Association* 2015, no. 1 (March 18, 2015): 2.

² Seyfettin Erşahin, "The Official Interpretation of Islam under the Soviet Regime: A Base for Understanding the Contemporary Central Asian Islam," *Hamard Islamicus: Quarterly Journal of Studies and Research in Islam* 28, no. 4 (2005): 7–25.

³ Michael Kemper, *Studying Islam in the Soviet Union*, vol. 321 (Amsterdam University Press, 2009), 7; Adeeb Khalid, *Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia* (Berkeley: University of California Press, 2007).



Sovet davlati Sovet hokimiyatning islom dinini turli xil tashkilotlar.xususan, O‘OQMDB orqali boshqarishi barcha kunlik hayot va odatlarning muntazamlashuviga olib keladi degan ishonch sovet rahbariyatini bu ishni qilishga undadi.Chunki, xuddi shunday vaziyat Turkiya va Misr Respublikalarida ham mavjud edi.Bunga yana bir sabab, Dinning odamlarni safarbar qilish qobiliyatidir.Zero tarixdan ma’lumki so‘nggi asrlargacha barcha urushlar (salib urushlari yoki jihod) diniy mazmunga ega edi. Shuning uchun diniy muassasalar tashkil etish davlatga foyda keltirishi mumkin hamda bunday muassasalar orqali diniy faoliyatni samarali nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Bolsheviklar Sovet Ittifoqi ichida sovet diniy hayotining asosiy jihatlarini cheklashga harakat qildi.Rasmiy diniy tashkilotlarni tashkil etish orqali har kuni musulmonlar faqat tasdiqlangan amaliyotlarni bajarib,din fuqarolarni intizomli ko‘proq itoatkor va boshqariladigan tizimning dindor bo‘lagiga aylantirdi. Diniy siyosatni byurokratlashtirish natijasida partiya va davlatning diniy hayotga aralashuvi kuchaydi.

Sovetlarning fashistik Germaniya bilan bo‘lgan urush voqealarini tadqiqot obekti sifatida o‘rgangan amerikalik yana bir tadqiqotchi Merrit Mayner izlanishlarida⁴ urush yillarida O‘zbekiston SSR va boshqa musulmonlar ko‘p yashovchi hududlarda diniy omildan aholini nemislarga qarshi ilhomlantirish vositasi sifatida foydalanganligi, birinchi marotaba I.V.Stalining dinga qarshi fikrdagi nutqlari kamayganligi ateistik jurnallar nashri to‘htatilganligi jarayonlari tarixiy manbalar yordamida umumiylah tahlilga tortilgan.Shu bilan birga, 1943-1944-yillarda O‘zbekistonSSR qozisi bo‘lgan, keyinchalik muftiyiga aylangan Ziyovuddinxon Eshon Boboxon va u kishining urush paytidagi tashkilotchilik harakatlarini tanqidiy va tahliliy usulda o‘rganib chiqilgan.

Rus tarixchisi va sharqshunos olimi D.Arapovning ilmiy ishlarida Rossiyada islom tarixi,Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekistondagi islom tarixi masalalari maxsus tadqiqot obekti sifatida o‘rganilib, ularda turli xil davrlarda o‘zgarishlarga uchragan (1917-1949-1982-yillar davomida) diniy siyosat hamda

⁴ Miner,Stephen Merritt. Stalin’s Holy War:Religion,Nationalism, and Alliance Politics,1941-1945 // Acta Slavica Iaponica: Journal of the Slavic Research Center,Hokkaido University. -Japan,Sapporo,2015.Volume 26.- P.73-90.



kadrlar tayyorlashdagi ayrim jihatlar, ulamolar va ularning davlat va jamiyat hayotidagi roli haqida zaruriy ma'lumotlar aks ettirilgan.⁵

NATIJA VA MUHOKAMA

Sovet Ittifoqidagi fuqarolarning shaxsiy hayotidagi diniy unsurga ta'sir etish zamonaviylashuvning bir ko'rinishi sifatida ijtimoiy hayotning, barcha jabhalarini davlatga bog'lashni nazarda tutadi.Qisqacha qilib aytsak, Xudo irodasiga bog'langan boshqaruv usuli, sovetlar nazdida davlatga bog'lanishi va shu orqali umumiyl baxtga va totuvlikka erishish mumkin.

Shu ma'noda, zamonaviy dunyoviy jamiyatlarda ham din nafaqat ijtimoiy qonun vazifasini balki, o'z-o'zini tarbiyalash funktsiyasini ham bajaradi.Dyurkgeymning so'zlariga ko'ra, dinlar zamonaviy davrda o'zlarining ijtimoiy mavjudligini saqlab qolishda davom etdilar.Zamonaviy dunyoviy va diniy sohalar o'rtasidagi bu bog'liqlik dinning ma'nosи va unga nisbatan munosabatlarni tubdan o'zgartirdi. Sovet Ittifoqining bir necha o'n yilliklar davomidagi ateistik urinishlariga qaramay XXasr oxirida jamiyatning katta qismi o'zini dindor deb bilardi.

Sovet Ittifoqidagi rasmiy va norasmiy islom

SADUM rahbariyati DTIQ (Diniy tashkilotlarishlar ishlari bo'yicha qo'mita), Davlat xavfsizlik qo'mitasi (KGB) va mahalliy hukumatlar nazorat ostida edi.

Biroq, ko'pgina G'arb va rus olimlari ta'riflaydigan musulmonlarning ruhoniylaridan iborat norasmiy guruhlari (mahalliy din peshvolari) ham bor edi, Bu norasmiy olimlar o'z marosimlarida SADUMga ergashmadilar yoki sovetlar bilan ishlovchi bu tashkilotga ishonmadilar.Domulla Hindustani kabi din arboblari norasmiy madrasa va masjidlar orqali o'z ta'sir tarmog'ini o'rnatish orqali jamiyatda hali ham diniy asoslarning kuchli ekanligini ko'rsatdilar.Odamlar ziyoratgohlarni ziyorat qilib, sunnat, to'y va dafn marosimlarini nishonlashni davom

⁵ Арапова Д.Ю. Мусульманский триптих: Ислам и советская власть. 1917-1949-1982 // Мир ислама. - Москва. 2009 . №1 (2). - С.248-266.



ettirdilar. An'anaviy diniy urf-odatlarga ko'ra marosimlar, ko'pincha rasmiy yoki norasmiy ulamolar yoki ba'zi holatlarda mahalliy oqsoqollar tarafidan o'tkazilardi.

Rasmiy va norasmiy tarmoqlar o'tasidagi munosabatlar odatda Sovet davrida islom diniga munosabatni o'rgangan tarixchilarining tadqiqot sohasi hisoblanadi. Bennigsen va Lemercier -Quelquejay SSSRdagi diniy urf-odatlarni rasmiy va norasmiy deb ajratdi. Ularning g'oyalari asosan rasmiy hujjatlar, jurnallar va gazetalarga asoslangan o'sha paytda foydalanish mumkin bo'lgan. Biroq, sovet tarixchilarining yangi avlodi Xolid, Tasar va Bobojonov kabilar bu toifaga qarshi bahs yuritadilar, aksincha, ularning ta'kidlashicha Sovet davridagi diniy sohani rasmiy va norasmiy islomga ajratish juda qiyin, chunki rasmiy ro'yxatdan o'tgan va ro'yxatdan o'tmagan imomlar o'rta sidagi munosabatlar aniq ajratilmagan va murakkabroq. Xolid ham bunga qarshilagini bildiradi rasmiy va norasmiy tushunchalarini ishlatsa ham uning tahlilida Islom, ba'zida norasmiy tarmoqlar davlat muassasalariga ham kirib bordi. SADUM a'zolaridan biri Ismoil Sattiyev kabi rasmiy ruhoniylarning ba'zilari o'zlarining norasmiy hujralariga ega edilar (bu yerda uylardagi ta'lim nazarda tutilmoqda).

Uning tadqiqoti Tasar va Bobojonovlarning fikriga mos keladi. Rasmiy va norasmiy tarmoqlar o'rta sidma ma'lum aloqalar mavjud bo'lib, bu ham ushbu toifalashning qiyinligini oshiradi. SADUMning tashkil etilishi natijasida sovet hukumati mahalliy aholiga yaqinlashdi va uning denga nisbatan munosabati nisbatan yumshadi.

XULOSA

1940-1950 - yillarda Sovet hukumati tomonidan olib borilgan diniy siyosat mahalliy xalqlarning erk uchun kurashiga qarshi qaratilgan vosita edi. Milliy davlatlarning to'liq shakllanmasligi va qardosh xalqlarning birlashmasligi uchun ham diniy omilni va dindorlarni kuchsizlantirish yoki ularga minimal huquqlar berish orqali tiyib turish sovet hukumatining asosiy prinspiga aylandi.

Bu davrning yana bir o'ziga xos jihatida unda ma'lum bir davrda erkinliklarni kafolatlash haqida qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilingan bo'lsada amalda ularga umuman amal qilinmadi. Balki keyingi davrda bu huquqlar sekin asta



oyoqosti qilinib ming yillik madaniy va milliy rivojlanishga ega xalqlarni o‘zligidan mahrum qilish va yagona sovet hukumati va xalqini shakllantirishga ahamiyat berildi.

Natijada, sovet siyosatining bu davri milliy o‘zlikni anglash jarayoniga jiddiy to‘siq bo‘ldi va mustaqillikka intilish ruhiyatini so‘ndirishga qaratilgan siyosatning muhim qismi bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. X.Yo‘ldoshxo‘jayev, I.Qayumova. O‘zbekiston ulamolari. - T.: “Movarounnahr”, 2015. - 495b.
2. Usmonxo‘jayev A. Dinimiz fidoyilari (tarix, xotiralar, saboqlar). – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 376 b.3. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1 jild. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – B.578.
3. Ахмадуллин В.А. Изучение особенностей исламской жизни Советом по делам религиозных культов при СНК СССР/СМ СССР в первое послевоенное десятилетие // Исломоведение . – 2019. - №2 (40). – С. 57-76.
4. Бальтанова Г.Р. Ислам в СССР : анализ зарубежных концепций. – Казан, Издательство Казанского университета, 1991. – 148 с.
5. Akiner Sh. Islamic People of the Soviet Union. London, 1983.
6. Bacon E. Central Asians under Russian Rule: A study in Culture Change. – Cornell University Press, New York, 1982.
7. Bennigsen A. Islam and political power in the USSR, Religion and political power, ed. Gustavo Benavides, M.W.Daly, Albany, 1989, pp. 68-80.
8. Ro‘i Y. Islam in the Soviet union. From the Second World War to Gorbachev. – London : Hurst, 2000.